

**BO'LAJAK SHIFOKORLARNI TAYYORLASHDA RIVOJLANTIRUVCHI TA'LIMNING UMUMIY  
METODIK TAMOYILLARI**

**ОБЩИЕ МЕТОДИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ РАЗВИВАЮЩЕГО ОБРАЗОВАНИЯ В  
ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ ВРАЧЕЙ**

**GENERAL METHODOLOGICAL PRINCIPLES OF DEVELOPMENTAL EDUCATION IN THE  
PREPARATION OF FUTURE DOCTORS**

Aliyev Zohidjon Zokirjon o'g'li -  
Central Asian Medical Universty tibbiyot universiteti o'qituvchisi [zohidjonaliyev984@gmail.com](mailto:zohidjonaliyev984@gmail.com)

Aliyev Z. Z. BO'LAJAK SHIFOKORLARNI TAYYORLASHDA RIVOJLANTIRUVCHI TA'LIMNING UMUMIY  
METODIK TAMOYILLARI. Acta CAMU, 1 (ISSN: 2181-4155), 135-137. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7583270>

**Annotasiya:** Maqolada rivojlantiruvchi ta'limni o'qitish nazariyasi va amaliyotidagi muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Rivojlantiruvchi ta'lim deyilganida o'qitishni shunday tarzda tashkil etish tushuniladiki, bunda o'quv jarayoni mazmuni, o'qitish metod va shakllari bo'lajak shifokorlarni har tomonlama rivojlantirishga, ularni nazariy olgan bilimlarini amalda qo'llashga yo'naltirib o'qitiladi.

**Kalit so'zlar:** Rivojlantiruvchi ta'lim, o'qitish jarayoni, metodlar, shifokor, metapredmet kompetensiyalar.

**Аннотация:** В статье развивающее обучение является одним из важных направлений в теории и практике обучения. Развивающее образование подразумевает, что обучение организуется таким образом, чтобы содержание учебного процесса, методы и формы обучения были направлены на всестороннее развитие будущих врачей и практической применение полученных ими теоретический знаний.

**Ключевые слова:** развивающее обучение, учебный процесс, методика, терапевт, метапредметные компетенции

**Abstract:** In the article, developmental education is one of the important directions in teaching theory and practice. Developmental education means organizing education in such a way that the content of the process, their teaching methods and forms are aimed at the comprehensive development of future doctors, and the practical application of the knowledge gained.

**Key words:** Developmental education, teaching process, methods, therapist, metasubject competencies.

**Kirish.** 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini, ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risidagi Prezident Farmonida Ilm-fan sohasini, shu jumladan tibbiyotni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish belgilangan edi.

Ta'kidlash lozimki, mazkur farmon tibbiyot tarmoqlari va sohalarini jadal rivojlantirish, ilmiy-intellektual hamda moliyaviy resurslarni to'liq safarbar etgan holda tibbiyotni yangi sohalarini tashkil etish, mavjud tarmoqlarni yanada rivojlantirish, ilmiy-innovatsion salohiyatdan keng foydalanish, istiqbolda:

- tibbiyot ilmini muntazam isloh qilib borishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilimga ega va mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash;
- ilmiy infratuzilmani modernizatsiya qilish ishlarini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Ushbu dolzarb vazifalardan kelib chiqib Oliy ta'lim tizimini rivojlantirishda rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratishdan iborat. Shuni inobatga olgan holda ham amaliy ham nazariy jihatdan

zamon talablariga javob beradigan yangi oliy o'quv yurtlari tashkil etilmoqda [1-3]. Xususan Farg'ona shahrida Nurullo Shukurullayevich boshchiligidagi zamon talablariga javob beradigan Central Asian Medical University (O'rta Osiyo Tibbiyot Universiteti) tashkillandi va 2022-yilning 3-oktyabr sanasidan Davolsh ishi, Pediatriya ishi va Stomatologiya yo'nalishlari bo'yicha talabalarni tanlov asosida qabul qilib, ularga malakali ustozlar sifatli ta'lim berishni boshlashdi.

Rivojlantiruvchi ta'lim o'qitish nazariyasi va amaliyotidagi muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Rivojlantiruvchi ta'lim deyilganida o'qitishni shunday tarzda tashkil etish tushuniladiki, bunda o'quv jarayoni mazmuni, o'qitish metod va shakllari bo'lajak shifokorlarni har tomonlama rivojlantirishga yo'naltirib o'qitiladi. Eng avvalo, rivojlantiruvchi ta'limning muhim farqli jihatlari haqida to'xtalib o'tmoq lozim. Rivojlantiruvchi ta'lim ham axborot-reproduktiv ta'limdagi singari uchta asosiy pedagogik vazifa, ya'ni o'qitish (bilim berish), rivojlantirish va tarbiyalash vazifalari orqali amalga oshiriladi. Bu vazifalar har bir darsda mavzuni o'rganishda joriy etilishi mumkin [4-7]. Ammo, rivojlantiruvchi ta'lim axborot-reproduktiv (faqat ma'lumotlar berish, quruq yodlash, tayyor bilimlarni o'zlashtirishga asoslangan) ta'limdan farq qiladi. Shuni inobatga olgan holda talabalarga darsda olgan bilimlarini mustahkamlab borish va nazariy olgan bilimlarini amalda qo'llash maqsadida Tibbiyot kasbiga kirish darslarida va darsdan bo'sh vaqtlarida "MERIDIAN" nomli klinikamizda amaliy darslar ham tashkil etilgan. Talabalar malakali va ko'p sillik tajribaga ega shifokorlardan saboq olib, o'zlariga kerakli bo'lgan bilim va malakalarni egallashmoqda. I.P.Pavlov ta'kidlaganidekb "klinika o'zining ming yillik tarixiy taraqqiyoti davomida turli xildagi kasalliklarning mohiyatini aniqlashda muhim rol o'ynaganligiga, patologik holatning morfologiyasini to'liq ochib bergan bo'lishiga qaramasdan kasallanish jarayonining mexanizmini boshidan oxirigacha to'liq tahlil qilish va to'liq o'rganish faqatgina eksperimentator qo'li bilan amalga oshiriladi".

Tajribaning afzalligi shundan iboratki, uni o'tkazishdagi sharoit va organizmga ta'sir etuvchi omil aniqdir. Shuning uchun ham tibbiyotda tajriba usuli keng qo'llanilib, uning asosiy ajralmas qismi bo'lib qolgani ham bejiz emas.

Rivojlantiruvchi ta'limda:

a) ta'limiy vazifa (o'qitish, bilim berish vazifasi) axborot-reproduktiv tizimdagi kabi tayyor ma'lumot-materiallarni quruq yodlashni emas, balki nazariy tushunchalar (qonuniyatlar, qonunlar, nazariyalar, sxemalar, jadvallar va rasmlarni) ni nafaqat amaliy ko'nikmalarni puxta egallashni nazarda tutadi balki metapredmet kompetensiyalarni ham rivojlantiradi. Ular muhim belgilariga ko'ra o'quv axborotidan alohida ajratib o'rganiladi;

b) rivojlantirish vazifasi ilmiy ijodkorlik metodlarini o'zlashtirish uchun o'quv faoliyatining barcha bosqichlarida bo'lajak shifokorlarni kasbiy faoliyatiga ustuvorlik berishni nazarda tutadi;

v) tarbiyalash vazifasi bo'lajak shifokorlarda nazariy bilimlarni amalda mustaqil qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirishni nazarda tutadi. Bu esa o'qituvchi va bo'lajak shifokorlarning izchil muloqoti va hamkorligini taqozo etadi.

Rivojlantiruvchi ta'lim tuzilmasi qiyinlashtirilib boriladigan metapredmet masalalaridan iborat bo'lib, ular bo'lajak shifokorlarda nafaqat yangi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga ehtiyoj uyg'otadi, balki yeshimlarning yangi sxemalarini yaratish va faoliyatning yangi usullarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Bunda nafaqat ilgari o'zlashtirilgan bilim va faoliyat usullari faollashtiriladi, balki yangi farazlar ilgari suriladi, kasalliklar izlanadi va davolash usullari ishlab chiqiladi. Buning natijasida bo'lajak shifokor ta'lim jarayonida intellektual va shaxsiy sifatlarini, metapredmet kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniga ega bo'ladilar. Rivojlantiruvchi ta'lim jarayonida o'qituvchining asosiy vazifasi bo'lajak shifokorlarning mustaqil bilishi va metapredmet kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan o'quv faoliyatini tashkil etishdan iborat.

Ta'limning rivojlantirish vazifasi bo'lajak shifokorlarni ijodiy tasavvurlarini, fikrlashi, tibbiyotga bo'lgan qiziqishi, xotirasi, nutqi, amaliy metapredmet kompetensiyalarini boytishga qaratilgan turli faoliyatlarga jalb etish orqali amalga oshiriladi. O'qituvchi shifokorlarni turli amaliy o'quv-bilish faoliyatiga jalb etib, ularning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini yanada rivojlantiradi. Rivojlantiruvchi ta'limdagi eng asosiy masalalardan biri – bu bo'lajak mutaxassisning o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirishdir.

Rivojlantiruvchi ta'limda bo'lajak shifokor nafaqat muayyan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtiradi, balki o'zining mutaxassisligi bo'yicha bemorlarga tashxis qo'yish va uni davolashni ham o'rganadi.

O'qish jarayonida shifokor doimiy ravishda aqliy jihatdan rivojlantirish va tarbiyalab borish lozim. Buning uchun, eng avvalo, o'qituvchi bo'lajak shifokorlarning rivojlanish darajasini aniqlashni o'rganishi zarur. Agar bo'lajak shifokor oldiga aniq maqsad qo'yilsa va bilimlarni mustaqil o'zlashtirish zarurati tug'ilsa, ularning aqliy va kasbiy jihatdan rivojlanishi ancha muvaffaqiyatli bo'ladi.

Bo'lajak shifokor biror bemorni davolash uchun fikrlaydi, izlanadi. Bu ish bir necha amallarni o'z ichiga qamrab oladi. U kuzatadi, kasallik belgilarini tahlil qiladi, kasallikni davolash uchun bir nacha usullarni qo'llaydi. Shuning uchun, o'qituvchi bo'lajak shifokorlarni chuqur fikrlashga o'rgatishi kerak. Ta'limning rivojlantirish vazifasi ana shundan iborat. Ta'lim ham, tarbiya ham bo'lajak mutaxassis shaxsini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois, ta'limning rivojlantirish vazifasi haqida so'z yuritishga zarurat yo'qdek tuyuladi. Ammo amaliyot shuni ko'rsatadiki, o'qitish jarayonida ta'limning rivojlantirish vazifasini muvaffaqiyatli ravishda amalga oshirish mumkin. Bunda ta'limning maxsus rivojlantiruvchi yo'nalishi shakllantiriladi. Bo'lajak shifokorlar sensor qabul qilish, harakat, intellektual, irodaviy, emochional, motivasion va kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan faoliyat turlariga jalb etiladi. Ana shunga bog'liq holda, o'tgan asrning oltmishinchi yillarida pedagogikada «rivojlantiruvchi ta'lim» atamasi paydo bo'ldi. Rivojlantiruvchi ta'lim bo'lajak shifokorlarda nafaqat bilim va maxsus ko'nikmalarni, balki shu bilan birga ularni umumiy rivojlantirishni va bu borada maxsus chora-tadbirlar ishlab chiqishni nazarda tutadi.

**Xulosa.** Jamiyat taraqqiyoti bo'lajak shifokor shaxsi, metapredmet kompetensiyalari, ijodkorligi va axloqiy imkoniyatlarini rivojlantirishga mutlaqo yangicha yondashuvlarni taqozo etmoqda. Bu esa tibbiyot yo'nalishlari ta'lim sohasida istiqbolli yo'nalishlarni belgilash va yangi strategiyalarni ishlab chiqishni talab qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Taraqqiyot strategiyasi" markazi Axborot xizmati.
2. "D.E.Eshimov, R.F.Ro'ziqulov "Hayvonlar patofiziologiyasi fanidan amaliy laboratoriya mashg'ulotlari". O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, Toshkent 2007-yil, 6-bet
3. N.Saidahmedov "Pedagogik amaliyotda yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash texnologiyalari". Toshkent 2000-yil
4. J.Tolipova, N.Numonova "Ta'lim-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar". Jurnal, Xalq ta'limi №3
5. (<https://sputniknews-uz.com/news/20170930/6419228.html>).
6. Абдуманонов А. А. Современные технологии обучения медицинских предметов с использованием информационно-коммуникационных технологий // Материалы конференции отражают результаты исследований, посвященных инновациям в образовании и медицине и охватывают широкий спектр образовательных и научных направлений. 2016. – С. 12.
7. Абдуманонов А. А. информационно-коммуникационные технологии в самообразовании студентов высших медицинских учебных заведениях //Инновации в образовании и медицине. Материалы V Все.–2018.–С. 9.